

**VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA JINOYATCHILIKNI OLDIN OLISH VA
BARTARAF ETISH YO'LLARI.****Tolibova Sevinch Orifjon qizi**

*O'zbekiston Milliy Universiteti „Ijtimoiy fanlar“
fakultetining, Yurisprudensiya: Biznes huquq Yo'nalishi: 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilik va huquqbazarliklarni oldini olish borasida mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar, voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilgan jinoyatlar haqida statisitik ma'lumotlar, shuningdek, voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikni oldini olish profilaktikasi, o'smirlarning jinoiy xulq-atvori sabablarini aniqlash va bartaraf etish bo'yicha kompleks ishlarni amalga oshirish muammolari va ularga chek qo'yish masalalarini hal qilishda insonparvarlik yondashuv asosida amalga oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Voyaga yetmaganlar, kriminologik tavsif, huquqbazarlik, statistika, profilaktika choralari, vagvatsiya, kriminalistik xarakter, tajovuzkorlik, maxsus tadbirlar, jinoyatchilik.

KIRISH

Yoshlik o'zining olivjanob tashabbusi, sofkillikka, adolatga intilish bilan taraqqiyotning buyuk kuchlaridan birini tashkil qiladi. Yoshlik, bu-orzu, ishonch, kelajakka tuzilgan ulkan rejalar va istiqbolning boshlanishidir. Agar yoshlik orzusi bo'limganida inson hayoti bir nuqtada to'xtab qolgan bo'lardi. Aleksandr Ostrovskiy aytganidek, „Bolalikdayoq barkamol bo'lishni judayam zarur deb hisoblayman, odam maktabni tugatganidan keyin ham ko'p narsalarni o'rganishi mumkin, ammo, mashg'ulot ko'nikmasi va aqliy kamolotning asosi yoshlikda shakllanadi“. Shu sababli bu ne'matdan unumli foydalanib, o'zining salohiyatini oshirib brogan, jamiyatda munosib o'rinnegallashga kirishgan insonning ertasi nurafshon.

Ammo "Yoshlik-beboslik" deya nojoya harakatlarga qo'l urib, jinoyat ko'chasiga kirib kelayotgan yoshlar afsuski, bugun uchrab turibti. So'nggi paytlarda jinoyatchilik va huquqbazarlik holatlarining aksariyati ham yoshlar o'rtasida kuzatilayotgani achchiq haqiqat.

MAVZU DOLZARBLIGI. So'nggi yillarda respublikamizda yoshlar siyosati eng ustuvor vazifa hisoblanib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning "Agar farzandlarimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kun har daqiqa, uni yurish-turishi kayfiyatidan ogoh bo'lmasak, ularni ilm-u hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas" deya ta'kidlagan fikrlaridan ham yoshlarning huquqiy bilimlarini oshirish, vatanparvar etib tarbiyalash, ular o'rtasida jinoyatchilik va huquqbazarliklar sodir etilishining oldini olish dolzarb masalaga aylanganligini anglab olsak bo'ladi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashishning asosiy chorasi oilani mustahkamlash, uning ma'naviy-ruhiy muhitini

yaxshilashdan iboratdir, chunki bolalar oiladagi psixo-travmatik sharoitlardan, oilaviy nizolardan, ota-onalarning mehrsizligi va tushunmovchiligidan ularning shafqatsizligi yoki loqaydligidan qochishadi.

Hozirgi vaqtida ko'proq bolalar kompyuterlarga, zamonaviy bolalar uchun juda ko'p vaqt talab qiladigan turli xil tarmoq o'yinlariga qiziqishmoqda, ular madaniyatga qiziqishni to'xtatadilar. Aytish mumkinki, voyaga yetmaganlarning xatti-harakati tobora ko'proq haqoratli, tajovuzkor va shafqatsizlik bilan tavsiflanadi. Shu o'rinda huquqni muhofaza qiluvchi targ'ibot organlari o'smir yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilikka qarshi kurashish emas, balki jinoyatchilikni oldini olish, profilaktik chora-tadbirlar ko'rishga e'tiborini kuchaytirdilar.

Voyaga yetmagan jinoyatchining asosiy ijtimoiy-demografik xususiyati bu uning yoshi, jinsi va oilaviy ahvoldir. Jinoyat kodeksimizga ko'ra, shaxs 16 yoshdan umumiy jinoiy javobgarlikka, 14 yoshdan boshlab esa qasddan odam o'ldirish, o'g'irlash, zo'rlash,jinsiy ko'rinishdagi zo'rlik ishlatish, bosqinchilik, tovlamachilik, talonchilik jinoyatlari uchun; 13 yoshdan esa aybini og'irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o'ldirish uchun jinoiy javobgarlikka tortilishi belgilangan.

Voyaga yetmagan jinoyatchilarning jinsiga oid tadqiqotlarda quyidagilarni ko'rish mumkin:

Ushbu toifadagi jinoyatchilarning 90-95%erkak jinsidagi shaxslar bo'lib, shu yoshdagi aholi qatlaming ko'pchiliginini,ya'ni 48-52%ni tashkil etadi;

Voyaga yetmagan va jinoyat sodir etgan qizlar esa aholining shu yoshdagi qatlamiga kiruvchilarning 4-9%ni tashkil etadi. Har ikki jinsga taalluqli voyaga yetmagan jinoyatchilarning bu ko'rsatgichlari mamlakatimizda keying o'n yil mobaynida bir xilligicha saqlanib qolmoqda;

Ayol jinsidagi voyaga yetmaganlar jinoyatlarida ishtirok etuvchilarning miqdori katta yoshdagilar tomonidan jinoyat sodir etilishida qatnashishdan qariyb 3-4 marta kamdir. To'g'ri voyaga yetmagan jinoyatchi qizlarning jinoiy faolligi jinoyat qonunchiligidagi belgilangan yoshgacha ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Statistik malumotlarning ko'rsatishicha, keying paytlarda qizlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar miqdori voyaga yetmaganlar jinoyatlari tarkibida 2-2,5 marta ko'paygan. Shuningdek, voyaga yetmagan qizlar ko'pchilik jinoyatlarning sodir etilishida yo'naltiruvchi,o'g'rilik,talonchilik,ta'magirlik,firibgarlik,hatto odam o'ldirish jinoyatlarida esa ishtirokchi sifatida qatnashganlar.

Voyaga yetmagan shaxslarning kriminalistik tavsifi haqida gapiradigan bo'lsak-bu ularning axloqiy va psixologik xususiyatlaridir. Tadqiqotlarga ko'ra, 14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan voyaga yetmaganlarning fe'l-atvorida uyat-andisha,o'zgalar tashvishini anglamaslik,o'zini tuta bilmaslik, qo'pollik, yolg'onchilik va aybini tan olmaslik kabi xislatlar kuzatilgan. Shuningdek bu yosh oralig'ida voyaga yetmaganlar extirosga beriluvchan, odamovilik, o'zgalar dardiga xAMDARD bo'la olmaslik, tajovuzkorlik, o'jarlik kabi xislatlar ko'proq kuzatiladi. Shuningdek, aksariyat hollarda ularda huquqiy ong past bo'ladi, ular o'qish san'at va siyosatga qiziqmasdan, aksincha ko'ngilochar o'yinlarga, ichkilikka qiziqishadi va bu kabi ehtiyojlarini qondirish uchun

g'ayriqonuniy va jinoiy yo'llar bilan mablag' topishga harakat qilishadi.Voyaga yetmaganlarning kriminalistik xarakterining so'nggi belgisi bu-ularning fiziologik xususiyatlaridir. Xusan, huquqbazarlik yoki jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning aksariyati spirtli ichimliklarga va giyohvandlik vositalariga ruju qo'yan bo'lishadi.Bu esa, o'z navbatida ularning shaxsiyatini tanazzulga uchrashiga va turli o'ylanmagan xavfli qilmishlarni sodir etilishiga olib keladi.Olib borilgan islohotlar shuni ko'rsatadiki,huquqbazarlik sodir etgan etgan voyaga yetmaganlarning 15% o'z qilmishlarini spirtli ichimliklar yoki giyohvandlik vositasi ta'sirida sodir etishgan.

Shu o'rinda aytishimiz mumkinki,voyaga yetmaganlarning kriminalistik xarakterida quyidagi xususiyatlarni ko'rish mumkin ekan:

- Voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbazarliklar ko'p xollarda shavfqatsizlik sodir etiladi;
- voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbazarliklar aksariyat hollarda ular 14- 15 yoshlarida sodir etiladi;
- voyaga yetmaganlar huquqbazarlarning aksariyat hollarda sog'lom oilaviy muhit bo'lmaydi va moddiy jihatdan qiyin ahvolda bo'ladi;

Hozirgi kunda respublikamizda ijtimoiy profilaktika yo'nalishida quyidagi muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- yosh avlodni jismoniy, ruhiy va ma'naviy kamol topishiga keng imkoniyatlar yaratish;
- voyaga yetmaganlarni tarbiyalashda oila, jamiyat va davlatning rolini oshirish hamda bunga eng muhim ijtimoiy masala sifatida qarash, bola tarbiyasini imkon qadar oilada ota-onalar orqali amalga oshirilishini ta'minlash;
- ota-onalar ishtiroki bo'lman yoki no'maql oilalarning yuzaga kelishi orqasida voyaga yetmaganlarga nisbatan yetkaziladigan moddit va ma'naviy zararni davlat hamda jamoatchilik tshkilotlari tomonidan qoplash;
- voyaga yetmaganlar taqdiriga mas'uliyatsizlik bilan qaraydigan shaxslar yo'l qo'yan xatolarning salbiy oqibatlarini tugatishni ta'minlash.

Xulosa. Shunday qilib, bugungi kunda voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha ko'rيلayotgan chora-tadbirlar va kelgusidagi konsepsiyalarning ishlab chiqilishi nafaqat davlat, balki jamiyat manfaatdorligini ko'rsatadi. Statistik tadqiqotlar natijalariga ko'ra jinoyatchilik darajasining kamaygani ham amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini tasdiqlaydi.

Hozirgi vaqtida yurtimizda voyaga yetmagan shaxslar sodir etadigan jinoyatlarning oldini olishni tashkil etish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi tizimida davlat siyosati talablaridan kelib chiqib, voyaga yetmaganlarni tarbiyalash uchun zarur profilaktika ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yishda bir qator islohotlar qilindi. Bu islohotlarni amalga tatbiq etishda vazirlik tizimiga kiruvchi turli soha xodimlari va mutaxassislarning ishtiroki kompleks tarzda ta'minlanmoqda.

Tabiiyki,bunday tashkiliy ishlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilmasligini ta'minlash va eng muhimi,retsidiv jinoyatlarning yuzaga kelishining oldini olishdir.Voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olish bir butun muammo bo'lib,bu muammoni yechishda bir qator ilmiy-nazariy bilimlarga va amaliy tajribalarga amal qilish talab etiladi.Xususan,barcha yo'nalishda bo'lganidek, jinoyatchilikka qarshi kurashda, shu jumladan, voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olish uchun birinchi navbatda, axbarot-tahliliy ishlarini amalga oshirish lozim.Chunki axbarot-tahlil ishlari orqali voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan barcha huquqbuzarliklarning umumiyligi holati,ularning miqyosi, tarkibi, tabiatи va dinamikasi to'g'risida zarur ma'lumotga ega bo'lish mumkin.

Voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olish maqsadida temir yo'l vakzallari, istirohat bog'lari, ommaviy dam olish maskanlari, tomoshaxonalar, diskotek, jamoatchilik ovqatlanadigan joylar, hovli va boshqa turar joylarda, ichki ishlar organlari hamda jamoatchilikning zarur kuch va vositalarini jalb qilgan holda (profilaktika inspektorlari,jinoyat qidiruv xodimlari, post-patrul xizmatlari) reyd tekshiruv va shu kabi tadbirlar amalga oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. 2021-yil
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. L.S.Galubnicaya „Shaxsning kriminologik xususiyatlari
4. Kriminologiya:Darslik S.Zaripov, Y.S.Po'latov, G.A.Avanesov
5. Lex.uz/ does /- 111453
6. T.S.Sharipov, M.M.Tursunova 2022.Меры профилактики и борьбы с насильственной молодежной преступностью.